
2023 YILNING O'TGAN OLTI OYI DAVOMIDA VILOYATIMIZDA XOTIN-QIZLARNI QO'LLAB-QUVVATLASHGA QARATILGAN ISHLAR

2023 yilning yanvar-iyun oylari davomida Farg'ona viloyatida 96 ming 154 nafar "Ayollar daftari"ga kiritilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarga yordam ko'rsatildi.

Bugungi kunda viloyatimizda 25 mingdan ziyod ayollar tadbirkorlik faoliyati bilan band bo'lib, joriy yilning yanvar-iyun oylari davomida ularning 15 ming 829 nafariga 227 mlrd. 562 mln. so'mlik imtiyozli kreditlar ajratildi.

150 nafar kam ta'minlangan ehtiyojmand xotin-qizlarning 1 mlrd. 750 ming so'mlik ta'lim kontrakt to'lovlari mahalliy byudjet hisobidan to'lab berildi.

10 ming 568 nafar xotin-qizlarning ta'lim kontraktlarini to'lashlari uchun 7 yil muddatga foizsiz ta'lim krediti ajratildi.

2 ming 691 nafar xotin-qizlarga subsidiyalar ajratilib, 9 mlrd. 61 mln. so'm mablag' yo'naltirildi.

17 ming 354 nafar xotin-qizlarning bandligi ta'minlandi. 11 ming 587 nafar xotin-qizlar kasbga o'qitilib, 6 ming 184 nafarga yaqini tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ydi, 7 nafar tadbirkor ayollarning tayyorlangan mahsulotlari eksportga chiqishi uchun ko'maklashildi.

71 nafar jazoni ijro etish muassasasidan qaytgan xotin-qizlarga 96 mln. so'm mablag' berildi, 55 nafari ishga joylashtirildi, 61 nafariga turli ko'rinishdagi yordamlar ko'rsatildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#), [Telegram](#), [Facebook](#), [YouTube](#), [Instagram](#)

2023-07-20 12:22:58